

УДК: 633.11:631.52

**LALMIKOR TOG‘OLDI MAYDONLAR IQLIMIGA MOS YANGI NAV VA  
TIZMALAR.****Ochilov Z.A.***Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti  
Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasi*

**Annotatsiya.** *Tog‘ va tog‘oldi lalmikor maydonlarda seleksiya va urug‘chilik laboratoriyasida 2022-2024 yillarda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining yakuni bayon etilgan. Uch yillik olib borilgan tadqiqotlar natijasida seleksiya to‘liq tizimda olib borildi va bir qancha seleksiya uchun birlamchi manbalar va 1 ta yangi nav yaratildi va Qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini sinash markaziga topshirildi.*

**Kalit so‘zlar.** *Tog‘ va tog‘oldi, tekislik, yumshoq bug‘doy, urug‘chilik, qaytariq, duragay, kombinatsiya.*

**НОВЫЕ СОРТА И ЛИНИИ, АДАПТИРОВАННЫЕ К КЛИМАТУ  
ПРЕДГОРНЫХ БОГАРНЫХ РАЙОНОВ**

**Аннотация.** *В статье описаны результаты научно-исследовательских работ в селекционно-семеноводческой лаборатории для горных и предгорных богарных районов на 2022-2024 годы. В результате научно-исследовательских работ в течение трех лет он создал новый сорт и передал в Центр сортов сельского хозяйства растения для испытаний.*

**Ключевые слова.** *Тог и тоголди, равнинност, мягкая пшеница, посев, селекция, гибрид, комбинатсия.*

**NEW VARIETIES AND LINES ADAPTED TO THE CLIMATE OF  
FOOTHILL RAINFED AREAS**

**Abstract.** *In the article described results of the scientific research works in in the breeding and seed production laboratory for mountain and premountain of rainfed areas on 2022-2024 years. It created a new variety and has given to Center of Varieties of Agriculture plants for Trial In the result of scientific research works for three years.*

**Key words.** *Mountain and premountain of rainfed areas, plain, bread wheat, seed production, replication, hybrid, combination.*

**Kirish.** *Bugungi kunda havo haroratinig yildan yilga ortib borishi natijasida hozirgi kun iqlim sharoitiga mos bo‘lgan issiqlikka, qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan yangi navlarni yaratish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. So‘ngi o‘n yillikda global*

**(2nd international scientific and practical conference)**

harorat taxminan  $1,5^{\circ}$  C ga oshgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich ayrim hududlarda  $2^{\circ}$  C dan ortiqni tashkil etmoqda. Bu esa mintaqada iqlim o'zgarishining global o'rtachadan tezroq kechayotganini ko'rsatadi. Shunday ekan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida hozirgi kun iqlimiga mos navlarni yaratish va ko'paytirish juda muhim vazifa hisoblanadi.

**Material va metodlar.** Seleksiya ishida nav yaratishning asosiy usuli ekologik jihatdan turlicha bo'lgan nav namunalarini har tomonlama o'rganish, qimmatli xo'jalik belgilariga ega navlarni tanlash va ularni mahalliy navlar bilan chatishtirish hamda olingan duragaylarda yakka tanlash ishlarini olib borish hisoblanadi.

Barcha uslub va agrotexnik tadbirlar Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti G'allaorol ilmiy-tajriba stansiyasi tomonidan (1994-2004) yillarda ishlab chiqilgan tavsiya va uslublar asosida, fenologik kuzatuvlar, dala va laboratoriya sharoitida turli ko'rsatkichlar bo'yicha baholashlar, tahlillar qishloq xo'jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasi (1997) va Sobiq Butunittifoq o'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti (Vir: 1985) da ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi.

Bug'doy nav namuna va tizmalarining zang kasalliklari bilan kasallanish darajasi halqaro SEV klassifikatorining (1984) Triticum avlodi bo'yicha ishlab chiqilgan uslubda va IKARDA halqaro ilmiy markazida (1996) ishlab chiqilgan Peterson va Manners shkalasi bo'yicha (foizda) baholandi.

O'simliklarni bichish (kastiratsiya) P.P.Luk'yanenko (1973) uslubida, changlantirish Twell uslubida (Merojko va boshqalar, 1973) amalga oshirildi.

Tog'oldi lalmikor maydonlarda yumshoq bug'doy seleksiyasi va urug'chiligi 2022-2024 yillarda Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti va Baxmal ilmiy-tajriba stansiyasining lalmi tog' va tog'oldi hamda tekislik mintaqalarida «Seleksiya va urug'chilik» laboratoriyasida to'liq tizimda olib borildi.

**Natijalar va ularning tahlili.** 2016-2024 yillarda kolleksiya pitomnigida halqaro ilmiy markaz IKARDA, SIMMIT VA O'zbekiston o'simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot institutidan keltirilgan 1200 dan ortiq kolleksiya nav namunalari o'rganildi. Shulardan qimmatli xo'jalik belgilariga ega bo'lgan navlar tanlanib chatishtirish asosida 150 dan ortiq duragay kombinatsiyalari olindi. 100 ta nav namunalari seleksiya pitomnigiga o'tkazilib o'rganildi.

2020 yil hosil yilida yog'in-sochin miqdori ko'p bo'lganligi o'rganilgan 285 ta nav namunalaridan sariq zang kasalligiga chidamli bo'lgan nav namunalarini ajratib olishga imkoniyat yaratdi.

Natijada kuchsiz zararlangan №117KB-01, №84 Serii B-2, №16 shark-1, №74 Seri, №Kuma zang kasalligiga chidamli №115, №1-00-14622, №107 Yumar, №95 Clear, №77 Florkwa, №93 Atilla yuqori hosildorlikka ega bo'lgan №22 Seri, №71 Qadanfer-9, №Seri-5, №84.T08-1, №K-2 (Qozog'iston),

(2nd international scientific and practical conference)

№K-22 (Qozog‘iston) nav namunalari ajratib olindi va ular mahalliy navlar bilan chatishtirilib boshlang‘ich materiallar yaratildi.



*Sariq zang kasalligini baholash va chatishtirish jarayoni*

Duragaylar pitomnigida F<sub>1</sub>-F<sub>4</sub> avlodlarining 100 ta duragay kombinatsiyalarida ertapisharliligi, kasalliklarga chidamliligi, hosildorligi bo‘yicha 1500 dan ortiq liniyalar yakka tanlash usulida tanlab olinib I-yil seleksiya pitomnigiga o‘tkazildi.

Barcha tajribalarda andoza nav sifatida «Baxmal-97» navi taqqoslanib o‘rganildi. Olib borilgan tadqiqot yillarida I-yil seleksiya pitomnigida 2200 dan ziyod nav liniyalari o‘rganildi. Shundan har yili 100-120 tadan hosildor, ertapishar, kasalliklarga chidamli qimmatli kompleks belgi va xususiyatlarga ega bo‘lgan liniyalar tanlab olinib, II-yil seleksiya pitomnigiga o‘tkazildi.

II-yil seleksiya pitomnigida har yil 200 tadan yangi nav liniyalari ekib o‘rganildi va 2022 yilda 50 ta 2023 yilda 75 ta, 2024 yilda 80 ta istiqbolli liniyalar mahsuldorlik ko‘rsatgichlari bo‘yicha andoza nav «Baxmal-97» ga nisbatan yuqori va tashqi muhitning noqulay sharoitlariga chidamli bo‘lganlari yuqori bo‘lgan 2022 yilda 41 ta, 2023 yilda 38 ta, 2024 yilda 34 ta liniyalar nazorat pitomnigiga o‘tkazilib o‘rganildi.

Tajriba o‘tkazilgan 2022-2024 yillar nazorat pitomnigida gektaridan olingan hosildorlik 24,0 s ni tashkil etdi. Andoza nav «Baxmal-97» navida bu ko‘rsatgich 26,4 s ni tashkil etdi. Tadqiqot yillarida andoza «Baxmal-97» naviga nisbatan 3-5 kun ertapisharliligi va qurg‘oqchilikka chidamliligi bo‘yicha 31 ta liniyalar ajratib olindi.

2022-2024 yillarda nazorat pitomnigidan 2022 yilda 14 ta, 2023 yilda 12 ta, 2024 yilda 6 ta nav liniyalari dastlabki nav sinoviga o‘tkazilib sinaldi.

Raqobatli nav sinovida 2022 yilda 24 ta, 2023 yilda 21 ta, 2024 yilda 18 ta nav liniyalari ekib o‘rganildi.

Uch yillik olib borilgan raqobatli nav sinovidag ilmiy-tadqiqotlarda navlarning hosildorligi va boshqa qimmatli xo‘jalik belgilari andoza nav «Baxmal-97» ga taqqoslab o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra yilning kelishiga

qarab hosildorlik turlicha bo‘ldi. Nav va yangi liniyalarda andoza « Baxmal-97» naviga nisbatan 0,9-4,5 s/ga don yuqori bo‘ldi.

Istiqlol-6, Sug‘diyona , №2012/97, KSI-97/2024, Oq bug‘doy, NP-2012/81, DNS-2012/26, Eritrospermum-81, Ko‘kbuloq nav va liniyalidir.(jadval-1)

**Jadval-1**

**Tog‘oldi lalmikor maydonlarda yumshoq bug‘doyning raqobatli navlar  
sinovidagi nav va tizmalarining qimmatli xo‘jalik belgi ko‘rsatgichlari va  
hosildorligi  
(Baxmal 2022-2024 yillar)**

Tartib	Nav va tizmalarining nomi	Boshqalash muddati (kun,	O‘ simlik	Yotib qolishga chidamliligi	Sariq zang kasalligi bilan	Hosildorlik, s/ga				Andoza navdan farq, (+,-)
						2022 y	2023 y	2024 y	O‘ rtacha	
1	Baxmal-97(an)	4.06	106	9	15	11,3	11,7	24,3	15,7	±
2	№2012/97	8.06	90	9	10	12,6	16,9	22,3	17,3	+1,6
3	Sug‘diyona	4.06	90	9	10	13,4	12,1	24,5	16,7	+1,0
4	No‘shkent	7.06	107	9	0	18,7	21,4	24,4	21,5	+5,8
5	Oq bug‘doy	1.06	113	7	0	9,4	14,2	21,8	15,1	-0,6
6	KSI-97/2024	4.06	96	9	5	12,3	19,6	25,6	19,2	+3,5
7	NP-2012/81	8.06	94	7	0	13,0	18,4	24,4	18,6	+2,9
8	DNS-2012/26	4.06	100	9	15	13,1	14,6	25,0	17,6	+1,9
9	Eritrospermum-81	1.06	108	9	10	12,8	13,5	25,6	17,3	+1,6
10	Eritrospermum-40	3.06	104	7	10	12,8	11,4	22,4	15,5	-0,2
11	Ko‘k buloq	6.06	103	9	0	11,5	13,3	22,0	15,6	-0,1

Uch yillik raqobat nav sinoviga ko‘ra eng yuqori don hosildorligi KSI-97/2024 navida kuzatildi. Bu nav hosildorligi andoza «Baxmal-97» naviga nisbatan gektaridan 3,5 sentnerga yuqori ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

Nav o‘rtapishar, yotib qolishga, qurg‘oqchilikka, sovuqqa chidamli. Sariq zang kasalligiga kam chalinadi. Yuqori agrotexnikaga talabchan.

**Xulosa.** Uch yillik tajriba natijasiga ko‘ra KSI-97/2024 navi «Zartepa» deb nomlanib 2024 yil oktabr oyida qishloq xo‘jalik ekinlarini sinash Davlat komissiyasiga sinov uchun topshirildi.

Respublikamizning lalmikor mintaqalar uchun rayonlashtirilgan Baxmal-97, Oq bug‘doy, Istiqlol-6, Ko‘kbuloq navlarining boshlang‘ich urug‘chiligi to‘liq tizimda olib borildi. I yil avlod sinovida 500 ta, II yil sinovida 200 ta, I yil ko‘paytirish avlod pitomnigida talab darajasidan kelib chiqib 1,5 gektardan 5,5 gektargacha maydonda urug‘ oshirilib reja uddalandi.

2023 yildan tog‘ va tog‘oldi lalmikor maydonlar uchun istiqbolli deb topilgan «No‘shkent» navining boshlang‘ich urug‘chiligi ustida ish boshlandi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jalik ekinlari davlat reestri 2017 yil.
2. D.T.Abdukarimov “Donli ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi”. Toshkent 2010 yil.
3. B.A.Dospexov “Metodika polevogo opita” Moskva 1985 g.
4. “Qishloq xo‘jalik ekinlarini sinash Davlat komissiyasi tomonidan uslubiy qo‘llanma” Toshkent 1997 yil.